

**ERGASH YO‘LI BILAN TUZILGAN MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR.
ARALASH TUZILGAN MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR**

*Oriental universiteti, Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Boshlang‘ich ta ’lim yo ‘nalishi
2-kurs talabasi
Vohidova Muqaddas
olimaova210@gmail.com*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada murakkab qo ‘shma gaplar haqida umumiy ma ’lumotlar yig‘ish, ergash yo ‘li bilan tuzilgan murakkab qo ‘shma gaplar va aralash tuzilgan murakkab qo ‘shma gaplarni tavsifi hamda ular orqali gaplar tuzish. O‘quvchilarda murakkab qo ‘shma gaplardan ya ’ni ergash yo ‘li bilan tuzilgan murakkab qo ‘shma gaplar va aralash tuzilgan murakkab qo ‘shma gaplardan foydalangan holda gap tuza olish qobiliyatini shakllantirish, nutq madaniyatini takomillashtirish haqida bayon qilingan.*

Аннотация: В этой статье мы соберем общие сведения о сложных предложениях, опишем сложноподчиненные предложения, образованные следующими и составными сложными предложениями, и составим предложения с их использованием. Рассказывается о формировании у учащихся умения составлять предложения с помощью сложных предложений, т. е. сложных предложений, образованных следующими и смешанными сложными предложениями, а также совершенствовании культуры речи.

Annotation: *In this article, we will collect general information about compound sentences, describe complex clauses formed by following and compound compound sentences, and make sentences using them. It is explained about the formation of students’ ability to form sentences using complex sentences, i.e., complex sentences formed by following and mixed complex sentences, and improvement of speech culture.*

Kalit so‘zlar: *murakkab qo ‘shma gaplar, murakkab qo ‘shma gap turlari, ergash gaplar, aralash tuzilgan gaplar, aralash murakkab qo ‘shma gap ko ‘rinishlari*

Ключевые слова: *сложные предложения, виды сложных предложений, придаточные предложения, сложные предложения, формы сложносочинённых предложений.*

Keywords: *compound sentences, types of compound sentences, subordinate clauses, compound sentences, forms of compound compound sentences.*

KIRISH

Til – kishilarga fikrlashuv, fikrlash quroli bo‘lib xizmat qiladigan noyob ijtimoiy hodisa. O‘zbeklar o‘z tilidan ko‘p asrlar davomida foydalanib keladi. Dastlab og‘zaki muloqotni ta ’minlagan o‘zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo‘lgan. Yozma nutqda til hodisalaridan foydalanishning ma ’lum me’yorlarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘lgan.

Murakkab qo'shma gaplar o'zbek tilining boy sintaktik tuzilmalaridan biri bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash tilshunoslikda va yozma muloqotda katta ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Murakkab qo'shma gaplar yuzasidan ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, A. G'ulomov, M. Asqarova; B.Fayzullayev, T.Abdullayev; M.Asqarova, H.Abdurahmonov kabi olimlar shular jumlasidandir.

Murakkab qo'shma gaplarning o'rganilish davriga qarab ularning qay holatda o'rganilganligini, olimlarning nazariy qarashlarini taqqoslab chiqamiz.

Dastlab G'ani Abdurahmonovning murakkab qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlariga to'xtalsak:

Murakkab fikrni ifodalamoq uchun tarkibi murakkab bo'lgan qo'shma gaplar qo'llanadi.Murakkab qo'shma gaplar bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni, bog'lovchisiz qo'shma gaplarni o'z ichiga oladi.Bu xil qo'shma gaplarning qo'llanishi asosan yozma adabiyotga xosdir.

Qo'shma gapning tarkibi murakkablashishi bilan, qo'shma gapda ifodalangan ma'no munosabatlari ham orta va murakkablasha boradi. [2]

A.G'ulomov va M.Asqarovalarning murakkab qo'shma gaplar haqidagi qarashlari ham Fayzullayev, Abdullayev va Haydarovlarning fikrlari bilan deyarli bir xil. Ular murakkab qo'shma gaplarga shunday ta'rif berishadi: Qo'shma gaplar har doim ham ikki sodda gapning birikuvidan hosil bo'lavermaydi.Ular uch va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan ham hosil bo'lishi mumkin.Bunday gaplar qo'shma gapning murakkab turini hosil qiladi.

Murakkab qo'shma gaplardagi komponentlar tuzilishi grammatick xususiyati jihatidan bog'langan va ergashgan qo'shma gap komponentlaridan deyarli farq qilmaydi.

Murakkab qo'shma gapni tashkil etuvchi qismlar ergashish yo'li bilan, bog'lanish yo'li bilan hamda bog'lanish va ergashish yo'li bilan birikadi. Shu jihatdan ularni uch guruhga ajratish mumkin:

1.Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar)

2.Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar

3.Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (Aralash qo'shma gaplar)

Shuni ham aytish joizki G'ulomov va Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining 1965-yilda nashr etilgan kitobida uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan qo'shma gaplar murakkab qo'shma gaplar deb nomlangan. 1987-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chiqqan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida esa ko'p komponentli qo'shma gaplar deb atalgan. [3]

Asqarova va Abdurahmonovning nazariy qarashlari asosida "O'zbek tili grammaticasining praktikumi" nomli kitob yaratilgan.Ushbu kitobda murakkab qo'shma gaplar haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Bu kitob 1981-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan. Murakkab qo'shma gaplarning uch va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lishini ta'kidlashgan.Biroq murakkab qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarida kamchilikka yo'l qo'yilgan:

Murakkab qo'shma gap tarkibiy qismlari o'zaro turlicha yo'l bilan munosabatga kirishadi. Shunga ko'ra murakkab qo'shma gaplar quyidagi ikki gruppaga bo'linadi:

- 1.Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar
- 2.Aralash tipdagi qo'shma gaplar

Asqarova va Abdurahmonovning nazariy qarashlari to'g'ri, faqat murakkab qo'shma gaplar turlarini o'rganishda bog'lanish yo'li bilan, bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gaplar haqida ma'lumot berishmagan.

Asqarova, Yunusov, Yo'ldoshev, Muhammedovalar tomonidan murakkab qo'shma gaplar quyidagicha o'rganilgan: Qo'shma gaplar ba'zan uch yoki undan ortiq komponentlardan tuzilgan bo'lishi mumkin. Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi komponentlar o'zaro munosabatiga ko'ra uch xil ko'rinishiga ega bo'ladi:

Komponentlar orasida tenglanish munosabati bo'lib, undagi gaplarning barchasi teng huquqli bo'ladi. Ya'ni ular bog'langan qo'shma gaplarday munosabatga kirishadi. Misol: 1.Qor tigan, yo'llar qorga ko'milib ketgan, ko'chalar sirpanchiq edi. (O'.H moshimov) 2. Vokzal gavjum: birov chemodanga suyanib mudrar, birov papiro tutatib xayol surib o'tirar, birov do'kondan kitob tanlar edi. (O'.Hoshimov) [6]

B. Fayzullayev, T.Abdullayev va Sh.Haydarov murakkab qo'shma gaplarni quyidagicha o'rgangan: Ikkitadan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan qo'shma gaplar murakkab qo'shma gaplar deb ataladi. Bu tipdagi qo'shma gaplar komponentlari o'zaro turlicha munosabatlarda bo'ladi:

1. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.
2. Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.
3. Aralash tipdagi murakkab qo'shma gaplar

TADQIQIT NATIJALARI VA UNING MUHOKAMASI

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarning o'rganilishi

G'ulomov va Asqarovalar ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarni quyidagicha o'rganishgan:

Ergash gaplarning hamma turi ham boshqa ergash gaplar bilan birga qo'llanib, bir necha ergash gapli qo'shma gapni hosil qilishi mumkin.Bunday qo'shma gapning ergash gap qismi o'zaro tenglashish munosabatida bo'ladi, ya'ni ular uyushgan ergash gaplarni tashkil qiladi. Misollar: Qalbingda yonsa ham bir dunyo alam, qalbingni buksa ham olam-olam g'am, boshingga ayriliq solsa ham soya, ko'ngling g'ash bo'lsa ham bilonihoya, soching oqarsa ham hijron tufayli, yuzlaring za'faron bo'lsa ham mayli, onajon, ko'zingdan oqizma ko'p yosh.Men o'zimni inson bilganda, gulga to'lib bahor kirganda, yuragimda havas uyg'ondi.

Bunday murakkab qo'shma gaplarni tashkil etuvchi komponentlarning strukturası ikki xildir:

- a) birinchi turda ergash gaplar "mustaqil" sodda gaplarday (bosh gapday) shakllangan bo'ladi;
- b) ikkinchi turda ergash qismlar ergash gaplarday shakllanib, o'zaro tenglashish munosabatida bo'ladi.

Birinchi gruppani tashkil etuvchi komponentlar bosh gapga -ki, chunki, go'yo kabi yordamchilar vositasi bilan bog'lanadi.Bunday ergash gap garchi bosh gapga tobe sanalasa

ham, o‘zi “mustaqil” sodda gaplarday shakllanadi. Bunda birdan ortiq ergash gaplar o‘zaro tenglashish yo‘li bilan birikadi.

Ikkinci gruppani tashkil etuvchi birdan ortiq ergash gapning kesimlari to‘la shakllanmay, fe’lning sifatdosh, ravishdosh, shart mayli shakllari formalarida keladi. Ular o‘zaro tenglashish munosabatini tashkil qilishi va uyushib kelishi mumkin. Bunday ergash gaplar orasiga ham ba’zan teng bog‘lovchilar ishlataladi. Bu xildagi komponentlar orasida to‘lqisiz nisbiy tenglashish mavjuddir.

Shart, payt, o‘lchov - daraja, ega, sabab, ravish, to‘lqisiz kabi ergash gaplar o‘zaro nisbiy tenglashish vositasida birikadi. Misollar: Dam qarasang, bir joyga to‘planib qolishadi; dam qiltiriq mahsum o‘tsa, orqasidan xavfsirab qarab qo‘yishadi. Daraxtlar ko‘karsa va qirlar, maysalar yashnasa, bu joylar juda go‘zal bo‘ladi. [5]

Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida bir bosh gap va bir necha ergash gap bo‘ladi. Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarda bir necha ergash gaplar bitta bosh gapga tobelanadi. [1]

Aralash murakkab qo‘shma gaplarning o‘rganilishi

Aralash murakkab qo‘shma gap bir necha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:

1) Bog‘lanish va ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday gaplarning qismlari ham tenglanish, ham tobelanish aloqalari orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Masalan, Qutidor do‘koniga jo‘nagandan keyin, Oftob oyim To‘ybekani mehmonxonaga buyurdi va o‘zi xamir qilishga o‘tirdi. (A.Qodiriy).

Keltirilgan misolda birinchi gap (payt ergash gap) ikkinchi gapga (bosh gapga) ergashish yo‘li bilan birikkan, bularning ikkalasi uchinchi gap bilan “va” biriktiruv bog‘lovchisi orqali bog‘lanish yo‘li bilan munosabatga kirishgan.

2) Bog‘lanish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday aralash murakkab qo‘shma gap qismlari o‘zaro ham teng bog‘lovchilar (yoki teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar), orqali, ham bog‘lovchisiz munosabatga kirishadi: Yigitning rangi oppoq, ko‘zлari bo‘lsa bir o‘rinda to‘xtab qolgan, harakatsiz, egnida ... ola-bula matodan to‘qilgan ko‘ylagi bor edi. (M.Kozimiy). Bunda birinchi gap ikkinchi gap bilan o‘zaro “bo‘lsa” qiyoslov bog‘lovchi yordamida bog‘lanish yo‘li bilan, uchinchisi bilan ohang orqali aloqaga kirishgan.

3) Ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday aralash murakkab qo‘shma gap qismlari o‘zaro ham ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar, ham bog‘lovchisiz munosabatga kirishadi: Dilda saqlangan adovat temir zangiga o‘xshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi. Bunda ikkinchi gap uchinchi gapga o‘xshatish munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikib, birinchi gap esa yaxlit qilib olingan keyingi gaplarga bog‘lovchi vositalarsiz munosabatga kirishgan. [2]

4) Har uch munosabat: bog‘lanish yo‘li bilan, ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday qo‘shma gap qismlarining o‘zaro munosabati turlicha bo‘ladi: Eshik ochildi, shuning uchun hamma qayrilib qaradi, lekin hech kim kirmadi; sovuq havo xonani qopladi. Tolib aka eski xodim, umri shu redaksiyada o‘tgan va uni bu yerdan haydab bo‘lmaydi, shuning uchun Ahmadning o‘zi ketishi kerak.

(F.Musajonov). Bu aralash murakkab qo'shma gap to'rtta gapdan tuzilib, birinchisi ikkinchisiga bog'lovchi vositalarsiz, ikkinchisi uchinchisi bilan "va" biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'lanish yo'li bilan munosabatga kirishgan, birinchi uchala gap yaxlit holda to'rtinchi gapga sabab munosabati orqali ergashish yo'li bilan birikib kelgan.

5) Ikkitadan ortiq ergash gapli qo'shma gaplar teng aloqaga kirishadi:

Ko'kda parvoz etsa, yerga kirkay zog'lar;
Kishnagan ot o'tsa cho'ldan, qo'zg'alur tuproqlar;
Qonga so'lgay, jangga botir kirsa, so'lu-sog'lar.

6) Teng aloqali ikkita bosh gap o'zidan keyingi bitta ergash gapli qo'shma gap bilan teng munosabatga kirishadi: Bu savollarga men ham dabdurustdan javob bera olmayman, lekin vaqt soati bilan javob topamiz, xatoyimiz bo'lsa, tuzatamiz.

7) Bitta bosh gap o'zidan keyingi uchta ergash gapli qo'shma gap bilan teng aloqaga kirishadi: Hikmat bitmas va tunganmas xazinadir, xarjlaganing bilan unga nuqson yetmaydi, kiyganing bilan u eskirmaydi. [4]

8) Bitta ergash gap o'zidan keyingi teng aloqadagi uchta bosh gapning hammasiga alohida-alohida tobelanadi: Sichqon iplarni kesib bo'lgach, ohu turib qochdi, sichqon o'zini teshikka oldi va qarg'a uchub ko'kka ko'tarildi.

9) Aralash aloqali murakkab gap bir butun holda boshqa bir bosh gapga tobelanadi: Men sizga shuni aytmoqchimanki, agar firmamiz yiriklashsa, uning hisob-kitob ishlari osonlashadi va moddiy manfaatdorligi yaxshilanadi.

10) Ikkita ergash gap o'zidan oldingi teng aloqadagi ikkita bosh gapga alohida-alohida tobelanadi: Ertasiga kun shunday charaqlagan, osmon shunday tiniq ediki, unga astoydil tikilgan odam yaqin orada gurkirab turgan bahorni butun go'zalligi bilan ko'rganday bo'lar, bu kunni hech qanday musibat xira qilolmaydigan edi.

Asqarova va Abdurahmonovlar aralash murakkab qo'shma gaplar haqida quyidagi fikrlani aytishgan:

Aralash tipdag'i murakkab qo'shma gaplar ham ergashish, ham tenglashish yo'li bilan munosabatga kirishgan uch yoki undan ortiq sodda gaplardan tuziladi: Til boshqa-yu, dil birdir, chunki el birdir. Bu misolda birinchi va ikkinchi gap tenglashish munosabati orqali, uchinchi gap esa ergashish munosabati orqali birikkan. Shuning uchun ham aralash tipdag'i murakkab qo'shma gap hisoblanadi.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ergash yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar va aralash tuzilgan murakkab qo'shma gaplar o'zbek tilining sintaktik tuzilmalarini boyitadi. Ushbu gaplarni to'g'ri qo'llash muloqotning aniqligi va samaradorligini oshiradi. Har bir yozuvchi yoki so'zlovchi bu turdag'i gaplarni o'z nutqida qo'llash orqali tilni yanada ifodali va boy qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qish va yozish jarayonida murakkab qo'shma gaplar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu nafaqat tilni to'g'ri tushunishga, balki uni to'g'ri ifodalashga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. G‘. G‘ulomov, M.A.Asqarova “Xozirgi o‘zbek adabiy tili”. “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 1965
2. G‘. Abduraxmonov “Qo‘shma gap sintaksisi asoslari”. “O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi” nashriyoti.Tlshkent-1958.
3. M. Asqarova, X.Abduraxmonov “O‘zbek tili grammatikasining praktikumi”. “Uqituvchi” nashriyoti. Toshkent-1981.
4. M. Asqarova, R.Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhammedova “O‘zbek tili praktikumi” “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2006.
5. B. Fayzullayev, T.Abdullayev, Sh.Haydarov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Jizzax-2007.
6. R. Sayfullayeva. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. “Fan”, 2007.